
TOSHLOQ TUMANIDAGI 2-UMUMTA'LIM MAKTABIGA SUN'IY QOPLAMALI FUTBOL MAYDONI QURIB, FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida 2-umumta'lim maktabida 1 milliard 200 million so'mlik sun'iy qoplamali futbol maydoni yoshlar uchun foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligi arafasida bo'lib o'tgan ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar hamda mahalla faollari ishtirok etdilar.

Tadbirda tuman hokimi “Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida sun'iy qoplamali futbol maydoni barpo etilishi natijasida o'quvchilarni qolaversa, mahalla yoshlarini bo'sh vaqtini mazmunli o'tishi, ularni doimiy sport bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratilganligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng, mahalla faollari zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan futbol maydonidagi sharoitlarni ko'zdan kechirdilar.

2023-12-07 17:02:14